
Navbatdagi sayyor qabul 4-sektor hududida o'tkazildi.

Bugun Farg'ona shahar hokimi Vosiljon Nazarov tomonidan "A.Navoiy" mahalla fuqarolar yig'ini hududidagi 4-maktabda jismoniy va yuridik shaxslar uchun sayyor qabul o'tkazildi. Unda hokim o'rinbosarlari, 4-sektor rahbari Quyoshbek Bekmirzayev, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonasi Farg'ona shahar bo'limi mudiri G'ayratjon Pattayevlar ham ishtirok etishdi.

Qabul davomida 60 nafar jismoniy va yuridik shaxslardan tushgan murojaatlar, mas'ul rahbarlar ishtirokida o'rganildi. Yigirmadan ortiq murojaatlar ijobiy hal qilindi.

Kelib tushgan murojaatlar bo'yicha belgilangan tartibda o'rganib chiqish va natijasi bo'yicha mualliflarga ma'lum qilish uchun masalaga daxldor xodimlar, korxonalar, tashkilot va bo'limlarga tegishli topshiriqlar berildi.

2022-06-16 12:49:36